
G'O'ZA PARVARISHI BO'YICHA SEMINAR BO'LIB O'TDI

Bugun tumandagi "Navbahor saxovati" MMTP hududida joylashgan "Navbahor oq yo'l sahovati" fermer xo'jaligida g'o'za parvarishida birinchi kompleks agrotexnik tadbirlarini sifatli amalga oshirishga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi.

Seminarda viloyat prokurorining birinchi o'rinbosari M.Nazarov, tuman hokimi A.Djurabayev hamda sektor rahbarlari ishtirok etdi.

Paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari rahbarlari, klaster va qishloq xo'jaligi korxonlari mutaxassislari ishtirok etgan ushbu tadbirda chigit ekilgan maydonlarda to'liq nihol olish, g'o'za qator oralarini yagonalash va dastlabki ishlov berishni tashkil etish bilan bog'liq vazifalar xususida so'z yuritildi.

Seminarda tuman hokimi dala ishlarini tashkil etish bilan bog'liq muhim masalalar, jumladan mavjud barcha kultivatorlarni otryadlarga biriktirib, uzluksiz ishlashini ta'minlash, g'o'za maydonlarini begona o'tlardan tozalash va yagonalash ishlarini to'liq yakunlash, suspenziya sepish kabi kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Soha mutaxassislari kultivatorlarni ishlatish tartibi va ularning ish sifatini baholash, o'g'it solish me'yorlarini sozlash, g'o'za maydonlari hamda dala chetlariga zararkunanda va hashoratlarga qarshi biomahsulotlar, shuningdek kimyoviy preparatlar bilan profilaktik ishlov berish bo'yicha tavsiyalar berdilar.

Seminarda g'o'za parvarishida qatnashayotgan mexanizatorlar va dala ishchilarini moddiy rag'batlantirish masalalariga ham e'tibor qaratildi.

2023-04-25 17:21:19